

## TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK USULLARI

**Nabiyeva Mexribon Rabbimkulovna**

*Samarqand davlat universiteti II bosqich magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** *Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba orttiradi, ta'lim tarbiya, turli munosabatlar ta'sirida barkamol shaxs sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Insonni jamiyatdan va shaxslararo bo'ladigan o'zaro muloqotdan ajratib qo'yish uni shaxs sifatida shakllanishiga to'siq bo'ladi.*

*Mazkur maqolada mana shu muhim omil bo'lmish shaxslararo muloqotga talabalarni tayyorlashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan tomonlar, talabalarning muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantiradigan usullar va pedagogik jarayonda o'ziga xos bu usullardan foydalanish natijasidagina kutilgan samaradorlikka erishish mumkinligi yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *muloqot, shaxs, psixologiya, individuallik, metodlar, madaniyat, ijtimoiy, ko'nikma shakllantirish, dialog, vosita, didaktik o'yin, psixologik trening, psixodramma.*

Taraqqiy etayotgan Yangi O'zbekistonda bugungi kunda zamonaviy ta'lim metodining keng qamrovli jihatlari ta'lim tizimida qo'llanilib kelinmoqda. Yurt ravnaqi, mamlakatimiz kelajagi uchun zamonaviy ta'lim katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda, yangi yangilanish davrida zamonaviy ta'limning maqsadi – sifatli kadrlar tayyorlash, talaba shaxsini rivojlantirish, talabalarni ijtimoiy ahamiyatga ega ruhda tarbiyalash, ta'lim sifatini oshirish, talabalarni jamiyatga zarur shaxs yetuk inson sifatida tarbiyalashdir.

Oliy ta'limda shaxs rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biri talabalarning muloqot madaniyatidir. Oily ta'limda intellektual soha mutaxassisi va ta'limga ijodiy yondasha oladigan shaxsni rivojlantirishda muloqot madaniyati eng muhim resurslardan biridir.

Muloqot madaniyatini rivojlantirish oliy ta'lim talabasini universal xususiyatlarni egallashga, jamiyatning ijtimoiy talablarini qondirishga va yuqori professional bilimlarni egallashga imkon beradi.

L.N.Kulikova, A.V.Molojavenko, V.N.Myasichevlar o'z ishlarida muloqotning talaba shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyatiga katta baho berganlar. Psixologlar shaxsning muloqot imkoniyatini aniqlash maqsadida quyidagi savollar bilan murojaat qilganlar. «Nima uchun muloqot qilish kerak?». Mazkur savolga quyidagicha javob olganlar: «muloqot kishilar orasida umumiylikni tarkib toptiradi, ularning birgalikdagi faoliyatini boshqaradi, bilish usuli sifatida namoyon bo'ladi, alohida shaxslarni bilish asosi sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa muloqot, shaxsning o'z-o'zini aniqlashiga xizmat qilib, uning hamkorlikdagi faoliyatga kirishishini ta'minlaydi va muloqot sub'ektlari orasida o'zaro hamkorlik muhitini vujudga

keltiradi». <sup>101</sup> Nima uchun muloqotga kirishish kerak, degan savolga javob berishdan avval biz muloqotga jalb qiladigan odatlar, ehtiyojlar, ko'nikmalar mavjudligini unutmasligimiz lozim. Turli umumiylikka uyg'unlashar ekan inson bu jarayonda u muloqotning ob'ekti va sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot jarayonida shaxs o'zida atrofda gilarining muayyan ta'sirini his etadi. O'z navbatida uning o'zi ham muloqot jarayonida ularga muayyan ta'sir ko'rsatadi.

Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi ehtiyoji hisoblanadi. Muloqotni ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi axborot almashinuvi deb ta'riflash mumkin. U odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rin egallab, insondagi eng muhim ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari ozaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini qamrab oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi.

Shaxslararo muloqot funksiyalarini amalga oshirish – muloqot sub'yektining ma'naviyaxloqiy ko'rsatmalari, shuningdek, insonparvarlik, emotsional-ijobiy, shaxsiy yondashuv, individuallik va o'ziga xoslik kabi yo'nalishlar bilan belgilanadi.

Muloqot funksiyasi faqat muloqot sub'yektlarining ma'naviy-axloqiy yo'nalishigina emas, balki ko'p jihatdan, uning insonparvar-axloqiy mazmuniga bog'liq bo'ladi. Muloqotning shakli, lahzali, tasodifiy, tematik, rejalashtirilgan – bayon etish, axborot, xabar, suhbat, suhbatlashish, gaplashish, munozara kabilardan iborat.

E'tibor berish, qiziqish, ma'qullash, hamdardlik, istiqbolni ko'ra bilish yordamida ta'sir ko'rsatish, tushunilgan va anglab yetilgan motivatsiya asosidagi faoliyat kabilar muloqot turiga kirib, masalani hal etishga yo'naltirish, emotsional muhit yaratish, rag'batlantirish, yo'naltirish bilan hamkorlikdagi harakatlar yakunini yasashga yo'naltirish, shuningdek, muloqotning samaraliligi, uning mavzusiga ijobiy motivatsiyasi, e'tibori, qiziqishiga bog'liq bo'ladi.

Motivatsiya muloqot jarayonining boshqaruvchisi sifatida ma'no, onglilik, ishonch va qat'iylikni talab qiladi. Muloqotning ma'noli jihatlariga uning maqsad hamda umumiylikka erishishda o'z individualligini ko'rsatishi, shuningdek, muloqotning turli funksiyalaridan foydalanish – qo'zg'atuvchi, ekspressiv, tashkiliy, informative, emotsiyali, dalilga asoslanganligi va boshqalarni kiritish mumkin.

Shaxslararo yuzma-yuz muloqotlarda insonning potensial-shaxsiy, kasbiyehtiyojli hamda amaliy-idrok etish jarayoni sodir bo'ladi.

---

<sup>101</sup> Nikonova O. V. Formirovaniye kulturi obsheniya. Avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. Bryansk. 2001. 18 s.

Muloqot va faoliyat tushunchasiga ijtimoiy faollikning o'ziga xos shakli va ayni bir vaqtda individual mustaqillik sifatida qaraladi. Bu yerda muammoni qo'yish, uning maqsadi, vazifasi, masalalari, muloqot vaziyat-sharoiti, muhit omillari, elementlari, muloqot sub'yektiga talab muhim hisoblanadi. Bu jarayonda boshqa insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan odob, axloq, etiket bo'yicha oddiy qoidalarga amal qilish zarur. Shu bilan birga emotsional-ijobiy omil, simpatiya, empatiya muhim o'rin tutadi. So'z, nutq, hikoya qilib berish, xabardor qilish, gapirish, suhbatni olib borishni bilish (sherigiga e'tibor, diqqat, tushunish va hurmat bilan qarash, yuz ifodalari bilan ham fikrga qo'shimcha ma'no bera olish) katta ahamiyatga ega. Muloqot, albatta, ma'naviy, insonparvarlik hamda yuksak odoblilik darajasida bo'lishi kerak, asosiysi, shaxslararo muloqotda o'zini suhbatdoshi o'rniga qo'ya olishni bilishi zarur.

Shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun suhbatdoshning kayfiyati va holatini his qilishni o'rganish kerak.

Shaxslararo munosabat jarayoniga kiritilgan elementlar orasida ovoz ohangi, yuz ifodasi, harakatlar, ko'z qarashlari, suhbatdoshlar orasidagi masofa mavjud. Ushbu omillar tufayli biz boshqa shaxsning shaxsiyati, hissiy holati yoki niyatlari to'g'risida xulosa chiqarishimiz mumkin.

Shaxslararo muloqot – o'zaro aloqali, o'zaro bir-birini tushunish, idrok etish, axborot almashish, o'rgatish, rivojlantirish, tarbiyalash, o'zini namoyon etish, o'zini faollashtirish, ijtimoiy o'zaro aloqalar orqali ta'sir ko'rsatish xususiyatlariga ega.

Insonparvarlik – inson o'z huquqlari va qadr-qimmatini, shaxs sifatidagi qimmatini hurmat qilishni ifoda etuvchi qarashlar to'plami, uning farovonligi, har tomonlama rivojlanishi, hayoti uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida g'amxo'rlikdir. Insonparvarlik – insonning oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishiga asoslangan qarashlar to'plamidir. Shaxslararo muloqotni insonparvarlashtirish jihati suhbatdoshlarning intellektual-ma'naviy imkoniyatlarini faollashtirish va shaxsiyijtimoiy o'zligini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Mana shunday muloqotda talabalar shaxsi shakllantiriladi, chunki bu jarayonda ularning ichki imkoniyatlari, shaxsiy insonparvarligi to'la namoyon etiladi. Bu yerda bo'lajak mutaxassislarni shaxs, inson va insoniylik sifatleri to'g'risidagi bilimlari va muloqot madaniyati namoyon bo'ladi.

Insonparvarlik asosidagi muloqot – bo'lajak mutaxassislar uchun shaxsiy, ijtimoiy, hayotiy va kasbiy faoliyatlarining turli sohalarida insonparvarlik g'oyalari va qadriyatlarini amalga oshirishning muhim shart-sharoitlari hisoblanadi.<sup>102</sup>

Muloqotning insonparvarlik jihatlari ma'naviy-amaliy asosga – axloqiylikka asoslanadi. Inson ijtimoiy hayoti jarayonida ishlab chiqilgan (avlodlar hayotiy tajribalari asosida) va axloqiy kategoriyalarda aks ettirilgan g'oyalar, ideallar, qoidalar – me'yoriy axloqiylikka asoslanadi.<sup>103</sup>

<sup>102</sup> Mardonov O'. Shaxslararo insonparvar axloqiy muloqotlar. Uzluksiz ta'lim, 2008-yil, 5-son.

<sup>103</sup> Nazarov M. Muloqot madaniyati haqida. Muloqot, 2000-yil, 6-son.

Shaxslararo muloqotni insonparvarlashtirish quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- muloqotda asosiysi – insondir;
- muloqotda asosiysi insonparvarlarcha muloqotda bo'lish – do'stonalilik, samimiylik, inoqlik, totuvlikdir.

Ushbu muloqotda suhbatdosh o'zini ob'yekt sifatida emas, balki muloqotda teng ishtirokchi sifatida his etadigan yo'l, vosita, metod hamda shakllarini topishi zarur.

Muloqot jarayoni erkin, tabiiy, qiziqarli, bir-birini boyituvchi, bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi, o'zini namoyon etuvchi bo'lishi kerak. Muloqot jarayonida suhbatdosh shaxsiga e'tibor, do'stona suhbat, muloqot sharoitlariga mos, suhbatning ritorik jihati ko'zda tutiladi. Suhbatlashuvchi odob, axloq, ma'naviy sifatlarini namoyon etadi, suhbatdoshida kerakli sezgilarini uyg'otib, istalgan fikr va mulohazalarni yuzaga keltiradi. Sherigiga maqsadli ta'sir ko'rsatish uchun muloqot sub'yekt-ob'yekt xususiyatida, insonparvarlashtirilgan mazmunda mahsuldor-ijodiy asosda amalga oshiriladi. Muloqotda insonparvarlik – bu suhbatdoshiga o'zaro aloqa obyekt sifatida emas, balki o'zini namoyon etuvchi obyekt sifatida qarashdir.

Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish bugungi kunda talabalarning diqqat markazida turishi kerak. Bu masalani muvaffaqiyatli yechish uchun talabalarning o'quv va bilish faoliyatini jadallashtiradigan usul va psixologik treninglardan fooydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday trening va usullar nihoyatda ko'p va turli-tumandir. Bular jumlasiga birinchi navbatda psixologik treninglar, enerjayzer usullari, muammoli-kommunikativ topshiriqlar, bilish tadqiqotchilik loyihalari, ta'lim munozaralari va dialoglarni kiritish mumkin. Talabalarning muloqot madaniyatini shakllantirishda didaktik o'yinlar ham alohida o'rin egallaydi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, talabalarning kommunikativ ya'ni muloqot madaniyatini shakllantirishda mazkur usullardan yetarlicha foydalanishimiz zarur. Mazkur metod va treninglarni ta'lim jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Bu o'z navbatida axborot ko'lamining kengayishi va ta'lim jarayonini talaba shaxsiga yo'naltirish bilan bog'liq vazifalar ko'lamining kengayganligi bilan izohlanadi. Shu o'rinda o'qituvchidan nafaqat talabalarda muloqot qilish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish talab etiladi, balki ulardan ijodiy foydalanishni, talabalar o'rganishlariga bo'lgan ehtiyojni ham tarkib toptirish zaruriyati ham mavjud. Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishda psixologik trening usullaridan biri bo'lgan psixodramma ya'ni teatrlashtirilgan darslardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishda teatrlashtirilgan darslardan foydalanishning samaradorligi quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- Teatrga bo'lgan qiziqishning asosiy ko'lami va yo'nalishi har doim insoniy hamda inson va olam munosabatlari asosida qurilganligidadir. Chunki, xuddi mana shu asosni o'yin tarzida sahna asarlari orqali anglash mumkin. O'z kasbiy faoliyati taqozosi bilan o'qituvchi har doim o'zaro aloqalar va hamkorlik muhitida ishlaydi. U goh talabalar bilan, goh hamkasblari bilan ishchan muloqot o'rnatadi. Shu bilan bir qatorda, u dars beradigan o'quv

predmeti mazmunida o'zaro hamkorlikka asoslangan tadqiqotlarning natijalari namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar ayniqsa badiiy asar qahramonlari misolida yaqqol ifodalanadi;

Bu bilan darslarni faqatgina o'yin tarzida o'tkazish talabalar muloqot madaniyatini oshiradi degani emas. Darslardagi o'yin faoliyati yoki treninglar talabalar o'rtasida o'zaro muloqot qilish jarayonini yaratadi, bu jarayon esa albatta talabalarning muloqot madaniyati rivojlanishiga bir sabab va turtki bo'ladi. Talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda albatta ularning psixologik portretlarini, temperament va xarakter xususiyatlarini o'rgangan holda ularga muloqot madaniyatini rivojlantirish yo'llarining har bir turlarini qo'llab ko'rish kerak. Har bir talabaning individual xususiyatlari har xil ularning motivlari ya'ni faoliyatga undovchi kuchlari ham turlichadir. Shuning uchun muloqot madaniyatini rivojlantirish mashqlari va treninglarining hammasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishda ko'plab metodlar bilan bir qatorda, savol-javob, suhbat hamda trening metodlari muhim ahamiyatga ega.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Nikonova O. V. Formirovaniye kulturi obsheniya. Avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. Bryansk. 2001. 18 s.
2. Mardonov O'. Shaxslararo insonparvar axloqiy muloqotlar. Uzluksiz ta'lim, 2008-yil, 5-son.
3. Nazarov M. Muloqot madaniyati haqida. Muloqot, 2000-yil, 6-son.
4. Muhiddinov A.F. O'quv jarayonida nutq faoliyati. T.: O'qituvchi, 1995, 78-b